

## ASALARICHILIKNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

**Rustamov Otabek Yunusovich***Buxoro viloyati Vobkent tumani 2-sون kasb-hunar maktabi***Annotatsiya**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida asalarichilik sanoatini yanada kengaytirish, mamlakatimizda asalarichilikni rivojlantirishga qaratilgan prezidentimiz farmoyishlari, asaldan va asalari zahirasidan samarali foydalanish jarayonlariga keng izoh berildi.

**Kalit so‘zlar:** asalarichilik uyushmasi, tezkorlik, eksport, import, qishloq xo‘jaligi.

**KIRISH**

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida juda kata islohatlar olib borilmoqda.

Shu jumladan qishloq xo‘jaligida asalarichilikni rivojlantirish to‘g’risida choratadbirlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asalarichilik tarmog’ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik, ishlarini ilmiy asosda tashkil qilish, asalarichilik xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko‘paytirish, asalni qayta ishslash bo‘yicha zamонавиу texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek asalarichilik sohasidagi ilg’or tajribalarni resublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1-avgustdagи PF-5497-sonli Farmoniga ko‘ra:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda

Aksiyadorliktijorat “Aloqabank”, “O‘zbekiston asalarichilar” uyushmasini tashkil etish to‘g’risidagi taklifga ko‘ra rozilik berildi.

2. Quyidagi “O‘zbekiston asalarichilar” uyishmasini asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari qilib belgilandi:

- asalarichilik tarmog’ini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ishtirok etish;
- asalarichilik tarmog’ini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, yagona ilmiy-texnika, investitsiya va eksport siyosatini muvofiqlashtirish;
- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda asalarichilik xo‘jaliklarini o‘rmon fondi yerlariga, tog’ va tog’oldi hududlariga, tabiiy pichanzor va yaylovlarga hamda qishloq xo‘jaligi yerlariga joylashtirishni amalga oshirish;

• asalari uchun sun'iy ozuqalar ishlab chiqarishni markazlashgan holda tashkil etishga ko'maklashish va ushbu tajribani keng qo'llash hisobiga asalarichilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash;

• asalari kasalliklarining oldini olish davolash va tashxis qo'yish bo'yicha zamonaviy va ilg'or usullarni joriy etish ishlariga ko'maklashish;

• oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, shu jumladan xorijiy muassasalarda asalarichilik tarmog'ining kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish va muvofiqlash tirishda ishtirok etish;

3. "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasining tashkiliy tuzilmasi va uningijro etuvchi apparati boshqaruv xodimlarining umumiyligi cheklanganlar soni 27 nafar bo'lgan tuzilmasi muvofiqlashtirilgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va A.T.Aloqabank

Uyushmani "Apimondiya" xalqaro asalarichilik uyushmalari federatsiyasiga a'zo bo'lib kirishi bilan bog'liq barcha zarur tashkiliy-amaliy tadbirlar ta'minlangan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

*Asalning foydali xususiyatlari:* Asal hech qachon aynimaydi. U tabiiy antibakteriya, antimikrob bo'lib, har qanday buzuvchi, aynituvchi mikroblarga qarshi kurasha oladigan mahsulotdir. Asal Misr Firavni Tutanhemon (mil.av.XIV asr) saga'nsidan ham topilgan bo'lib, topilgan paytgacha (1922-yil 4-noyabr) iste'mol qilish uchun yaroqli holda saqlangan.

2011-yil "Menopause" jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda, ishtirokchilarning xotirasi asal ist'mol qilingandan 16 hafta o'tib estrogen va progestin garmonol terapiyasi bilan davolangan bemorlarniki singari yaxshilangani ta'kidlangan. 2022-yil "Pediatrice" jurnalida e'lon qilingan maqolada esa yuqori nafas yo'llari infeksiyasiidan aziyat chekadigan bolalar uyquga yotishidan 30 daqiqa avval evkalipt sitrus yoki shifobaxsh giyohli asal iste'mol qilganidan keyin platsebo qa bul qilinganlarga nisbatan kam yo'talgani va yaxshiroq uxlagni ma'lim qilingan.

Asalarining zahari tarkibida faol moddalar, fermentlar, erkin aminokislotalar, chumoli xlorid, ortofosfat kislotalari, gistamin, xolin triptofan, oltingugurt, magniy fosfat va boshqa moddalar bor. Asalari zahridan tibbiyotda radikulit bod kasalliklari, bronxial astma gioertoniya kasalliklarini davolashda keng foydalilanadi.

2021-yilning iyun oyida Jizzaxning "XIVA Honey" MCHJ korxonasi tabiiy asalni yangi bozor Xitoya eksport qila boshladi. Eksport Xitoyning yirik distribyutorlik komponiyasi bilan asal yetkazib berish bo'yicha tuzilgan 500 ming dollarlik shartnoma doirasida amalga oshirilgan. Asosiy eksportyorlar Yangi Zelandiya, Avstraliya, Tailand, Germaniya, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlarga amalga oshirildi.

## XULOSA

Respublikamizda asalari zahri bilan davolaydigan manzilgohlar kundan kunga ortib bormoqda. Ularning ro‘yxatidan Toshkent shahrida joylashgan “Donomed” klinikasi hisoblanadi. Bu klinikada nevrologik va boshqa kasalliklarni sharq tabobati yo‘li bilan davolaydi. Bu klinikada asalari zahridan keng foydalilanadi. Respublikamizda asalari biznesidan Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidan keng foydalilanadi. Kitob tumani asal ishlab chiqarish bo‘yicha Respublikada oldingi o‘rinlarda turadi. Qashqadaryo viloyatida ham asalari zahri bilan davolaydigan klinikalarni ko‘paytirish Respublika iqtisodiyotini o‘sishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

## REFERENCES

1. Karimov I.A. “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag’batlantirish chora-tadbirlari” to‘g’risidagi qarori. T. 2006 23- mart
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03/1-348-soni “Respublikada 2009-2011-yillar asalarichilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora - tadbirlar” dasturi.T.2009- yil 23- mart
3. Kraxotin N.F. “O‘zbekistonda asalarichilik” T.Mehnat, 1985.
4. Isamuhamedov A.I. - “Asalarichilik” T.O‘qituvchi, 1995.